

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XUDOYAROVA ZIYODA MARATOVNA

**TALABALARDA O‘ZINI O‘ZI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the
Doctor of Philosophy (PhD) on the Psychological Sciences**

Xudoyarova Ziyoda Maratovna

Talabalarda o'zini o'zi rivojlantirishning pedagogik-psixologik
xususiyatlari 3

Худоярова Зиёда Маратовна

Педагогические и психологические особенности саморазвития
студентов 21

Khudoyarova Ziyoda Maratovna

Pedagogical and psychological features of students'
self-development 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XUDOYAROVA ZIYODA MARATOVNA

**TALABALARDA O‘ZINI O‘ZI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2024.1 PhD/P56 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Tulaganova Gulnoza Olimjon qizi
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2021.P.26.02-raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

N.B. Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

Z.T. Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jismoniy va aqliy jihatdan barkamol bo'lgan yoshlar jamiyatning kelgusidagi rivojlanishi yoki inqirozining asosiy sababchilari bo'lganliklari bois ularni o'qitish, tarbiyalash, biror sohaga yo'nalgan iqtidorini o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Global Creativity Index (GCI) ning hisobotida keltirilishicha, o'zini o'zi rivojlantirish masalasiga e'tibor bergan mamlakatlarda ijodkorlikni tarbiyalash ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi kuzatiladi. YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida «sifatli ta'lim ijodiy tafakkurni va bilimni rag'batlantirishga, shaxsda savodxonlik malakalarini, o'zini o'zi rivojlantirishni, ma'lumotlarni tahlil qilishni, muammolarni hal etish, ratsional fikrlashni..., yuqori darajada egallash»ga xizmat qilishi qayd etilgan. Globallashuv davrida «... aqliy qobiliyatli yoshlarni aniqlash, ularni tizimli dasturlar yordamida qo'llab-quvvatlash»¹ga ustuvorlik berish tufayli shaxsni ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan shakllantirishga erishishning muhim omillaridan biri sifatida yoshlarda o'zini o'zi rivojlantirishni ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlarida talabalarni o'zini o'zi rivojlantirish, aqliy salohiyatini yuksaltirishni uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatiga asos sifatida qarash masalalariga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Talabalarning o'zini o'zi rivojlantirishini tarbiyalashda psixologik yondashuvlardan kengroq foydalanish, pedagogik faoliyat jarayonida ijtimoiy faollik, ijodkorlik, kasbiy altruizm, boshqalarga ta'sir eta olish kabi pedagogik-psixologik xususiyatlarni aniqlash dunyo mutaxassislari tomonidan dolzarb muammolar sifatida o'rganilmoqda. Shuningdek, talabalarning o'zini o'zi rivojlantirish orqali salohiyatini oshirish, takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish muhim ilmiy ahamiyat kasb etishi nuqtai nazardan muammoni ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda talaba-yoshlarning jamiyat taraqqiyotida ko'zda tutilgan ijobiy o'zgarishlarga daxldorlik hisini tarkib toptirish bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi: «...jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash»² ustuvor vazifa etib belgilanib, zamonaviy ta'lim tizimida talaba shaxsiga bo'lgan obyektiv talablarni yangilash, o'z ustida mustaqil ishlashni faol shakllantirish, professional pedagog shaxsining namunaviy modelitakomillashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Shu bois, «...mamlakatni modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni samarali yo'lga qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratishning zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish», «...ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, o'quv rejalari va dasturlari

¹ National Association for Gifted Children «Pre-K to Grade 12 Gifted Education Programming Standards». 2019. <http://www.nagc.org/resources-publications/resources/national-standards-gifted-and-talented-education>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-5841063>

mazmuni hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha soatlar taqsimotini kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikda fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari asosida shakllantirish»³ muhim vazifalar etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-son ««Yoshlar —kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlarida, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan Yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan S.N.Arifxanova, N.M.Dolimova, J.T.Mirzayev, D.Sh.Muhiddinova, L.A.Nigmatulina, B.R.Qodirov, B.M.Umarov, A.A.Fayzullaev, D.A.O'razbayeva, I.I.Raximova, S.B.Shukurov, G.O.To'laganova, Sh.A.Shakarboyeva, A.N.Qurbonboyev, N.T.Ubaydullayev va boshqalar tomonidan yoshlarning psixologik muammolari sifatida talabalik faoliyati, kasbiy kamolot va ta'lim-tarbiyaga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik, o'z-o'zini rivojlantirish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan T.A.Arjakaeva, B.Z.Vulfova, Y.P.Varlamova, M.A.Danilov, A.A.Ivin, L.P.Kugukina, N.V.Kuzmina, Y.Y.Korjova, G.A.Korovkina, I.S.Ladenko, Y.M.Orlov, G.I.Ratyako, A.A.Rean, V.R.Strokov, I.N.Semenov, S.Y.Stepanov, N.L.Smironova, V.N.Xarkina, V.V.Shterenko, L.N.Shulrina va boshqalarning ilmiy ishlarida talabalarni o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy, ijodiy, kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish, qadriyatlar yo'nalishiga doir tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Xorij tadqiqotchilaridan J.P.Allen, V.F.Asmus, K.Aurin, A.Bergsonda J.Bezzington, X.G.Viddovson, R.Dekart, B.L.Esser, M.S.Knovles, I.Kant,

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. - <https://lex.uz/docs/-4320713>

M.E.Levinson, L.M.Richards, B.Spinoza va boshqalar tomonidan talabalarning o'zini o'zi rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor berilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish» mavzusidagi PZ-20170923121-raqamli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2018-2020-yy.).

Tadqiqotning maqsadi talabalarda o'zini o'zi rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ilmiy-uslubiy jihatdan ochib berish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarda o'zini o'zi rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish;

talabalarning o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini shaxs motivatsion yo'nalganligiga bog'liq holda namoyon bo'lishini tadqiq etish;

talabalarning o'zini o'zi rivojlantirishning irodaviy o'zini boshqarishga bog'liq jihatlarini tahlil qilish;

talabalarda o'zini o'zi rivojlantirishning psixologik modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida talabalarning o'zini o'zi rivojlantirish jarayonining psixologik xususiyatlari olingan bo'lib, tadqiqotga Buxoro davlat universitetidan 90 nafar, Toshkent davlat pedagogika universitetidan 110 nafar va Qarshi davlat universitetidan 110 nafar, jami 310 nafar respondentlar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarga o'zini o'zi rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, V.Pavlovning «O'z o'zini rivojlantirishga tayyorlik testi», V.Gerbachevskiyning «Shaxs intilish darajasi» metodikasi, M.Kubishkinaning «Motivatsiya yo'nalganligini aniqlash» so'rovnomasi, A.V.Zverkov va Y.V.Eydmanlarning «Irodaviy o'zini o'zi boshqarish», A.V.Karpovaning «Shaxsdagi refleksivlikni o'rganish» metodikalaridan foydalanildi, olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pipsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning o'zini rivojlantirishga tayyorlik darajasi ta'limiy vaziyatlarda shaxsning o'z kamchiliklarini bilishga, xatolarini tuzatishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga ehtiyojini o'zida mujassamlashtirgan "o'zini bilishga psixologik tayyorlik" ijtimoiy mavqe va raqobatga intilish motivlarini faolashtirganligi tufayli shaxs motivasion yo'nalganligi bog'liq namoyon bo'lishi asoslangan;

talabalardagi o'zini rivojlantirishiga shaxs intilishlar darajasining ta'siri natijasida ichki va musobaqalashuv motivlari tashabbuskorlik sifatlariga uyg'un holda "o'zimni bilmayman va bilishni xoxlayman" bilan bog'liq refleksiv jarayonlarni kuchaytirganligi tufayli shaxsning o'zini bilishga psixologik tayyorligi ortishi isbotlangan;

talabalarda o'zini ozi rivojlantirishning pedagogik - psixologik xususiyatlari ta'lim jarayonida vaziyatli, retrospektiv, perspektiv refleksiyaning dinamikasi irodaviy

sifatlarni shakllanishiga ta'sir etganligi tufayli shaxs refleksiya darajasiga bog'liq holda namoyon bo'lishi dalillangan;

talabalarda o'zini o'zi rivojlantirishning psixologik modeli ijodiy faoliyat, mustaqillik, analitik fikrlash, hissiy barqarorlik, qat'iyatlilik, o'zini o'zi boshqarish, maqsadga intilish xususiyatlarini ta'lim jarayonida ustuvor namoyon bo'lishi muhimligi tufayli shaxs sifatlarining integral ta'sirini hisobga oluvchi komponentlarni kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagicha:

talabalarining kelgusidagi kasbiy faoliyatining uchun muhim bo'lgan omillardan o'zini o'zi rivojlantirish, shaxslilik sifatleri, ijtimoiy-psixologik sifatlar, motivatsion va kreativlik darajasi tushunchalar mohiyati yoritib berilgan;

talabalarda o'zini o'zi rivojlantirishga mo'ljallangan treninglar majmui ishlab chiqilgan;

talabalarda o'zini o'zi rivojlantirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy jihatdan chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarining keyingi kasbiy-pedagogik faoliyatda o'zini o'zi rivojlantirishni psixologik xususiyatlariga oid nazariy ma'lumotlar bilan boyitilganligi, olingan natijalardan oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan «Yosh davrlar psixologiyasi», «Kasbiy psixologiya», «Psixologik xizmat va maslahat», «Umumiy psixologiya» va «Shaxs psixologiyasi» fanlarini ilmiy manbalar bilan boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan oliy ta'lim muassasalari tizimida psixologik xizmatni tashkil etishda, talabalarining o'zini o'zi rivojlantirishda, ularning kamol topishiga keng miqyosda yordam berishda, umumiy o'rta ta'lim tizimida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda kreativ fikrlashda, ilmiy dunyoqarashni kuchaytirishda, kompetensiyalarini tarkib toptirishda va intellektual jarayonlarni ta'minlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarda o'zini o'zi rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

talabalarining o'zini o'zi rivojlantirishga tayyorlik darajasi ta'limiy vaziyatlarda shaxsning o'z kamchiliklarini bilish va xatolarini tuzatishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga ehtiyojini o'zida mujassamlashtirgan «o'zini bilishga psixologik tayyorlik» ijtimoiy mavqei va raqobatga intilish motivlarini faollashtirganligi tufayli shaxs motivatsion yo'nalganligiga bog'liq namoyon bo'lishi asoslangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-

yil 9-iyuldagi PM-159-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-159 a-son ma‘lumotnomasi). Natijada talabalarda o‘zini o‘zi rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish imkoniyati yaratilgan;

talabalardagi o‘zini o‘zi rivojlantirishga shaxs intilishlar darajasining ta’siri natijasida ichki va musobaqalashuv motivlari tashabbuskorlik sifatlariga uyg‘un holda «o‘zimni bilmayman va bilishni xohlayman» kabi refleksiv jarayonlarni kuchaytirganligi tufayli shaxsning o‘zini bilishga psixologik tayyorligi ortishi isbotlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-159-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-159 a-son ma‘lumotnomasi). Natijada talabalarning o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyalarini shaxs motivatsion yo‘nalganligiga bog‘liq holda namoyon bo‘lishini tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

talabalarda o‘zini o‘zi rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ta’lim jarayonida vaziyatli, retrospektiv, perspektiv refleksiyaning dinamikasi irodaviy sifatlarini shakllanishiga ta’sir etish darajasiga bog‘liq holda namoyon bo‘lishi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-159-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-159 a-son ma‘lumotnomasi). Natijada talabalarda o‘zini o‘zi rivojlantirishning irodaviy o‘zini boshqarishga bog‘liq jihatlari aniqlashtirilgan;

talabalarda o‘zini o‘zi rivojlantirishning psixologik modeli ijodiy faoliyat, mustaqillik, analitik fikrlash, hissiy barqarorlik, qat’iyatlilik, o‘zini o‘zi boshqarish, maqsadga intilish xususiyatlarini ta’lim jarayonida namoyon bo‘lishi muhimligi tufayli shaxs sifatlarining integral ta’sirini hisobga oluvchi komponentlarni kiritish asosida takomillashtirilgan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-159-son buyrug‘i bilan «Psixologik trening asoslari» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-159 a-son ma‘lumotnomasi). Natijada talabalarda o‘zini o‘zi rivojlantirishning psixologik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 133 betni tashkil etadi

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Talabalarda o'zini o'zi rivojlantirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida o'zini o'zi rivojlantirish fenomenini o'rganish bo'yicha ilmiy nazariyalar, turli psixologik yondashuvlar tahlil qilingan. Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bir tomondan, o'zini o'zi rivojlantirish masalalari kam o'rganilganligi, ikkinchi tomondan esa zamonaviy jamiyatdan talab qilinadigan juda dolzarb masala degan xulosaga kelish o'rinli. Bundan tashqari talabalarning o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini takomillashtirish tushunchasining psixologik asoslari hamda o'zini o'zi rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritib berilgan.

O'zbek olimlaridan Sh.V.Azizova, M.G.Davletshin, A.A.Fayzullaev, B.G.Gappirov, E.M.Muxtorov, T.Muydinov, X.A.Ruxiyeva, N.S.Safaev, G.O.To'laganova, R.I.Sunnatova, N.T.Ubaydullayev, Ye.A.Xaxlina, O'.B.Shamsiev, Sh.A.Shakarboyeva, A.N.Qurbonboyev, E.G'.G'oziev va boshqalar talabalarni o'zini o'zi rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar muammosi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Dissertatsiyaning «**Talabalarda o'zini o'zi rivojlantirishning empirik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi o'z aksini topgan.

Dastlabki tadqiqotimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqib tanlangan «O'z o'zini rivojlantirishga tayyorlik testi» orqali olingan dastlabki natijalar 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

V.Pavlovning «O'z o'zini rivojlantirishga tayyorlik testi» natijalari (n=310)

Shkalalar	O'rtacha (M)		t
	2-kurs (n=160)	4-kurs (n=150)	
O'zini bilishga tayyorlik	11,8	12,5	1,2
O'zini rivojlantirishga tayyorlik	9,1	12,2	2,3*

Izoh: * $p \leq 0.05$;

«O'z o'zini rivojlantirishga tayyorlik testi» bo'yicha olingan natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, «o'zini rivojlantirishga tayyorlik» ($t=2,3$; $p \leq 0,05$) omili bo'yicha 2 va 4 –bosqich talabalarining ko'rsatgichlarida ahamiyatli farq aniqlandi. Bu shundan dalolat beradiki, 4-bosqich talabalarida o'z faoliyat natijalariga qiziqishi va qoniqishi,

yangi bilim, fakt, hodisa va qonuniyatlarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratishi, bilimlarni o'zlashtirish yo'llari hamda mustaqil ta'lim olish usullarini o'rganishga intilishlari, qo'shimcha bilimlarni egallash asosida o'z bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish borasida o'z shaxsiy dasturiga ega ekanliklari aniqlandi.

Chunki, ularda faoliyatga yo'nalganlik mavjud bo'lib, o'z sohasini mukammal egallashga bo'lgan talab yuqori darajadali namoyon bo'ldi.

Dissertatsion tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishida muhim ahamiyat kasb etgan refleksiya darajasi dinamikasini A.V.Karpovanning «Shaxsdagi reflektivlikni o'rganish» metodikasi orqali aniqladik.

2-jadval

A.V.Karpovanning «Shaxsdagi reflektivlikni o'rganish» metodikasi natijalari (n=310)

Shkalalar	O'rtacha (M)		t
	2-kurs (n=160)	4-kurs (n=150)	
Vaziyatli refleksiya	19,3	21,2	2,5*
Retrospektiv refleksiya	21,3	23,7	2,2*
Perspektiv refleksiya	21,8	23,7	2,4*

Izoh: * $p \leq 0,05$

«Talabalarda refleksiya darajalari namoyon bo'lishi so'rovnomasi» bo'yicha olingan natijalardan ko'rinadiki, «vaziyatli refleksiya» ($t=2,5$; $p \leq 0,05$), «retrospektiv refleksiya» ($t=2,2$; $p \leq 0,05$) hamda «perspektiv refleksiya» ($t=2,4$; $p \leq 0,05$) omillarida ishonchli farqlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «vaziyatli refleksiya» omili bo'yicha ($t=2,5$; $p \leq 0,05$) 4-bosqich talabalarining ko'rsatgichlari 2-bosqich talabalarining ko'rsatgichlariga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi. Bu shundan dalolat beradiki, 4-bosqich talabalarida situativ aks ettirish, turli vaziyatlarda inson xulq-atvori bilan bog'liq holatning namoyon etilishida bevosita o'zini o'zi idora qilish, uning tarkibiy qismlarini tushunish, tahlil qilish va o'z harakatlarini vaziyatga bog'lash, ularni o'zgaruvchan sharoit va o'z holatiga mos muvofiqlashtirish qobiliyati aniqlandi. Demak, vaziyatli refleksiya omili yuqori natijani ko'rsatgan talabalar vaziyatga nisbatan tez moslashuvchan bo'ladi, shaxslar bilan tezda chiqishib keta oladi, bu esa ularning o'zini o'zi rivojlantirishida muhim ekanligini ko'rsatadi.

Keyingi «retrospektiv refleksiya» omili bo'yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natija kuzatildi ($t=2,2$; $p \leq 0,05$). Jumladan, 4-bosqich talabalarida o'tmishda sodir bo'lgan hodisalarni tahlil qilish ko'proq ustunlik qilishi, bo'lib o'tgan voqealar tafsiloti, o'tmishda qilingan xatolarini unuta olmaslik hamda qiyin vaziyatlarni eslab iztirob chekish holatlari aniqlandi. 2-bosqich talabalarida esa o'tmishda sodir bo'lgan salbiy hodisalarni unitib yuborish hamda xulosa chiqarish, o'zini o'zi rivojlantirish maqsadida ko'proq bo'lib o'tgan emas, aksicha bo'lishi mumkin bo'lgan voqelik haqida bosh qotirish holatlari dalillandi.

Metodikaning so‘nggi «perspektiv refleksiya» omili bo‘yicha ham 4-bosqich talabalarida yuqori natija qayd etildi. 4-bosqich talabalarida kelgusi faoliyatni, xulq-atvorni tahlil qilish, rejalashtirish, faoliyat natijalarini oldindan ko‘ra bilish, muayyan qarorlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tanqidiy baholay olish, muntazam ravishda o‘zini o‘zi tahlil qilish, o‘z vaqtida asosli qarorlar qabul qila olish, o‘z xatti-harakatlari tafsilotlarini puxta rejalashtirib o‘zini o‘zi rivojlantirish hamda kelajakdagi hodisalarga bo‘lgan munosabatda real baho berish kabilar kuzatildi.

3-jadval

«O‘z o‘zini rivojlantirishga tayyorlik testi» hamda «Motivatsiya yo‘nalganligini aniqlash» metodikalari o‘rtasidagi aloqadorlik (n=310)

Omillar	O‘zini bilishga tayyorlik	O‘zini rivojlantirishga tayyorlik
Ijtimoiy mavqega intilish	0,43*	0,16
Raqobatga ishtilish	0,09	0,48*
Maqsadga intilish	0,11	0,52*

Izoh: * $p \leq 0,05$

«O‘z o‘zini rivojlantirishga tayyorlik testi» hamda «Motivatsiya yo‘nalganligini aniqlash» metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar natijalariga ko‘ra, «o‘zini bilishga tayyorlik» omili «ijtimoiy mavqega intilish» ($r=0,43$; $p \leq 0,05$) hamda «raqobatga intilish» ($r=0,48$; $p \leq 0,05$) omillari bilan, «o‘zini rivojlantirishga tayyorlik» omili «maqsadga intilish» ($r=0,48$; $p \leq 0,05$) omili bilan ijobiy bog‘lanishlar qayd etdi.

Olingan natijalar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, «o‘zini bilishga tayyorlik» omili «ijtimoiy mavqega intilish» omili o‘rtasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlandi ($r=0,43$; $p \leq 0,05$). Mazkur omil bo‘yicha natijalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, talabalarda o‘z kamchiliklarini bilishga intilish, xatolarini tuzatishga intilish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, rahbarlik qilishga intilish, boshqalarga ijobiy ta‘sir o‘tkazish hamda o‘z xatti-harakatlarini boshqarish motivlarning mavjudligi ular da o‘quv faoliyatida qat‘iyatlilikni ham oshishiga sabab bo‘lar ekan. Shuningdek, talabalarda ijtimoiy mavqega intilishning namoyon bo‘lishi faoliyatda aniq maqsadlar va vazifalarni qo‘yish, ichki va tashqi imkoniyatlardan kelib chiqqan holda mashg‘ulotlarga yondoshish kompetensiyalari yuqori darajada bo‘lishligi bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy mavqega intilish talabalarining pedagogik-psixologik kompetentlik darajasini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Mazkur omil bo‘yicha natijalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy mavqega intilish o‘zini bilishga tayyorlik bilan ijobiy bog‘langan bo‘lib, ushbu holat talabalardagi kasbiy faoliyat bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni chuqurroq, tizimli o‘zlashtirishga, doimo shaxslararo munosabatga kirishishga intilish hamda talabalar orasida ijtimoiy o‘rnining balandligini anglatadi. O‘zini bilishga tayyorlik faoliyatga nisbatan qiziqishni ortishiga sabab bo‘ladi, bu esa talabalarda o‘zini o‘zi rivojlantirish, tizimli ravishda o‘z faoliyatini takomillashtirib borishga intilishning yuqoriligi bilan belgilanadi. Mazkur omildagi bog‘liqlikka ko‘ra, talabalarda ijtimoiy mavqega intilish jarayoni faoliyatda biror ishni boshlash, ijodiy yondashish, belgilangan maqsad yoki harakatni amalga oshirishda o‘ziga xos uslubdan

foydalanish va uni shu maqsad yoki ishga aloqador barcha kishilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga erishishni ifodalaydi.

«Raqobatga intilish» omili hamda «O‘zini rivojlantirishga tayyorlik» omillari orasida ham ijobiy bog‘lanishlar aniqlandi ($r=0,48$; $p\leq 0,05$). Talabalarda raqobatga intilish bu guruhda boshqalarga nisbatan yuqori bilim va ko‘nikmalarni egallash, muntazam ravishda o‘zini o‘zi rivojlantirish va kerakli bilimlarni muntazam egallab borish, hamkorlik qilish, o‘quv-ilmiy faoliyatda liderlikka intilish, ya’ni, fan olimpiadalariga, nomdor stipendiyalarga, innovatsion tanlovlarga intensiv ravishda qatnashish o‘quv hamda amaliyot jarayonlaridagi qiyinchilik va turli to‘siqlarga qaramasdan maqsad sari oldinga intilish bo‘lib, ulardagi bu jihat o‘zini rivojlantirishga tayyorlik omilini shakllantirish bilan bog‘liqdir.

Maqsadga intilish omili yuqori bo‘lgan talabalarda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashga nisbatan qiziqishning yuqoriligi, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan motivlarning ustunligi, ularda kognitiv jarayonlardan axborotlarni idrok qilishdagi sezgirlikning mavjudligi, mantiqiy xotiraning rivojlanganligi, innovatsion tafakkurning shakllanganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, talabalar qanchalik maqsad sari intilsa, o‘z oldiga yangi maqsadlar qo‘ysa, ularda o‘z kasbiga oid materiallarni o‘zlashtirishda qiyinchilik bo‘lmasligi hamda o‘zini rivojlantirishga tayyorlik motivi shakllanishi dalillandi. Talabalardagi o‘ziga ishonchning yuqoriligi, o‘z-o‘ziga adekvat baho berishi, faqat maqsad sari intilishga urinishi bilishga oid motivlar bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, maqsadga intilish darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda fikrlash jarayoni asosida qaror qabul qilish va qabul qilingan qarorga muvofiq o‘z fikrlari hamda harakatlarini boshqarish qobiliyatining mavjudligi, shuningdek, maqsadga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklar va to‘siqlarni yengish uchun intellektual hamda motivatsion imkoniyatlarni safarbar qilish qobiliyatining namoyon bo‘lishida aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Bu esa talabalarning o‘z ustida ishlashiga, o‘zini o‘zi rivojlantirishiga yordam beradi. Shunday ekan, maqsadga intilishning o‘zini rivojlantirishga tayyorlik omili bilan bog‘lilqligi maqsadlarni belgilash va qo‘llab-quvvatlashning individual xususiyatlarini, shaxsning faoliyatni ongli ravishda bajarishi bilan xarakterlanadi. Qolaversa, maqsadga intilish omili yuqori natijani ko‘rsatgan talabalarning mashg‘ulot va o‘quv jarayonlarini mukammal tarzda o‘zlashtirishi, oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni tashkil etish, uning bajarilishini nazorat qilish, natijalarini tahlil qilish xususiyatlari namoyon bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

Demak, talabalarning o‘z ustida ishlash, o‘zini rivojlantirish kompetensiyalari bevosita ijtimoiy mavqega intilish, jamoada sog‘lom raqobatni ta’minlash hamda maqsad sari odimlashda o‘z aksini topar ekan.

Tadqiqotda talabalarning o‘zini o‘zi rivojlantirishga tayyorlik darajasini shaxs intilishlari darajasiga bog‘liqlik tomonlari aniqlandi.

«O‘z o‘zini rivojlantirishga tayyorlik testi» hamda «Shaxs intilish darajasi» metodikalari o‘rtasida korrelyatsion bog‘lanishlar natijalariga ko‘ra, «o‘zini bilishga tayyorlik» omili «ichki motiv» ($r=0,43$; $p\leq 0,05$) hamda «tashabbuskorlik» ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «o‘zini rivojlantirishga tayyorlik» omili «musobaqalashuv motivi» ($r=0,40$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bog‘lanishlarga ega ekanligi aniqlandi.

**«O‘z o‘zini rivojlantirishga tayyorlik testi» va «Shaxs intilish darajasi»
metodikalari o‘rtasidagi aloqadorlik (n=310)**

Omillar	O‘zini bilishga tayyorlik	O‘zini rivojlantirishga tayyorlik
Ichki motiv	0,43*	0,16
Bilish motivi	0,05	0,09
Qochish motivi	0,11	0,12
Musobaqalashuv motivi	0,09	0,40*
Topshiriqlarning murakkabligi	0,13	0,17
Irodaviy quvvat	0,07	0,12
O‘z imkoniyatlarining bahosi	0,04	0,16
Tashabbuskorlik	0,38*	0,06

Izoh: * $p \leq 0,05$

O‘zini bilishga tayyorlik talabalarning pedagogik-psixologik kompetentlik darajasini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Mazkur omil bo‘yicha natijalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zini bilishga tayyorlik ichki motivlar bilan ijobiy bog‘langan bo‘lib, ushbu holat talabalardagi kasbiy faoliyat bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni chuqurroq o‘zlashtirishga, o‘zini nima xohlashini aniq bilishga, tizimli o‘zlashtirishga, doimo shaxslararo munosabatga kirishishga intilish hamda talabalar orasida ijtimoiy o‘rnining balandligini anglatadi. Ichki motivlar faoliyatga nisbatan qiziqishni ortishiga sabab bo‘ladi, bu esa talabalarda o‘zini o‘zi rivojlantirish, tizimli ravishda o‘z faoliyatini takomillashtirib borishga intilishning yuqoriligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotda «o‘zini bilishga tayyorlik» hamda «tashabbuskorlik» omillari o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanishga ko‘ra, talabalarda o‘zini bilishga tayyorlik jarayoni faoliyatda biror ishni boshlash, ijodiy yondashish, belgilangan maqsad yoki harakatni amalga oshirishda o‘ziga xos uslubdan foydalanish va uni shu maqsad yoki ishga aloqador barcha kishilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga erishishni ifodalaydi. O‘zini bilishga tayyorlikka intiladigan talabalarda o‘quv faoliyatida tashabbuskorlikni shakllantirish muhimdir. Bundan tashqari, talabalarning tashabbuskorligi, ijodiy imkoniyatlarining yuqori bo‘lishi hamda o‘zini bilishga tayyorlikka intilish jarayoni bir-biri bilan uzviy aloqador hisoblanadi.

Keyingi omil, ya‘ni «o‘zini rivojlantirishga tayyorlik» hamda «musobaqalashuv motivi» o‘rtasida ($r=0,40$; $p \leq 0,05$) aniqlangan ijobiy korrelyatsiyani talabalarda o‘ziga va ertangi kunga bo‘lgan ishonch, o‘z maqsadlariga erishishi uchun raqobatga tayyorlik darajalari namoyon bo‘layotgani bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, ularda jamiyatda o‘z ijtimoiy nufuzi, o‘rniga ega bo‘lishi uchun raqobatga intilishini ko‘rishimiz mumkin.

Demak, talabalarning o‘zini bilishga tayyorligi bevosita ularning ichki motivlari bilan uyg‘unlashsa, o‘zini rivojlantirishga psixologik tayyorligi shaxslararo

munosabatlarda, jamoada o‘zaro musobaqalashuv motivlariga integral holda namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida talabalarning o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini irodaviy sifatlarga bog‘liqlik jihatlari aniqlandi. Buning uchun «O‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorlik testi» hamda «Irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish» metodikalaridan olingan natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

5-jadval

«O‘z o‘zini rivojlantirishga tayyorlik testi» hamda «Irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish» metodikalari o‘rtasidagi aloqadorlik (n=310)


Omillar	O‘zini bilishga tayyorlik	O‘zini rivojlantirishga tayyorlik
Qat’iyatlilik	0,42	0,44*
O‘zini o‘zi boshqarish	0,48*	0,09

Izoh: * $p \leq 0.05$

«O‘z o‘zini rivojlantirishga tayyorlik testi» hamda «Irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish» metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar natijalariga ko‘ra, «o‘zini bilishga tayyorlik» omili «o‘zini o‘zi boshqarish» ($r=0,48$; $p \leq 0,05$) omili bilan, «o‘zini rivojlantirishga tayyorlik» omili «qat’iyatlilik» ($r=0,44$; $p \leq 0,05$) omili bilan ijobiy bog‘lanishlarga ega ekanligi aniqlandi.

Metodikaning «qat’iyatlilik» hamda «o‘zini rivojlantirishga tayyorlik» omillari ($r=0,44$; $p \leq 0,05$) bo‘yicha natijalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalar qiyinchilik va to‘siqlarga qaramasdan uzoqni ko‘zlagan maqsad sari o‘zini rivojlantirishga tayyorlikka intiladilar, talabalik davrida o‘zini o‘zi boshqarish tizimida qat’iyatlilik, shuningdek, ularda o‘zini dadil tuta olish, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga nisbatan bardoshlilik hamda o‘z qarorida qat’iy tura olish kabi jihatlar mavjudligi aniqlandi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashiga, ijodkorlikning oshishiga hamda o‘zini o‘zi rivojlantirishiga xizmat qiladi. Mazkur omil bo‘yicha natijalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, talabalarda shaxslar oldidagi burch va mas’uliyat hisi, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, rahbarlik qilishga intilish, boshqalarga ijobiy ta’sir o‘tkazish hamda o‘z xatti-harakatlarini boshqarish motivlarning mavjudligi ularda o‘quv faoliyatida qat’iyatlilikni ham oshishiga sabab bo‘lar ekan. Shuningdek, talabalarda ijtimoiy mavqega intilishning namoyon bo‘lishi faoliyatda aniq maqsadlar va vazifalarni qo‘yish, ichki va tashqi imkoniyatlardan kelib chiqqan holda mashg‘ulotlarga yondashish kompetensiyasi yuqori darajada bo‘lishligi bilan bog‘liqdir. Talabalar nafaqat o‘zlari balki, atrofidagi har bir insonni aniq faoliyat natijasiga yo‘naltira olishi va faoliyat mahsulini tahlil qilishga unday olishi zarurdir.

